

KURSANTLARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14195093>

Ismanov Komil Ismanovich

*podpolkovnik, Qurolli Kuchlar Akademiyasi
Qurollanish va otish kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining muhandislik kasbiga oid ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik talablari va shartlarini bajarish orqali bo'lajak muhandislarda kasbga yo'naltirilganlik ijodiy qobiliyatni shakllantirish masalasi bayon qilingan.

Kalit so'zlar

talaba, ta'lim, tarbiya, muhandis, ijod, qobiliyat, didaktik, o'quv jarayoni, qiziqish, ko'nikma, malaka, kasb, samaradolik.

Резюме

В статье рассматривается проблема формирования творческих способностей, направленных на профессию будущих инженеров, путем выполнения дидактических требований и условий для развития творческих способностей, связанных с инженерной профессией студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова

Студент, образование, инженер, творчество, способности, дидактика, учебный процесс, интерес, навыки, квалификация, профессия, эффективность.

Summary

The article describes the issue of formation of creative abilities directed to the profession of future engineers by fulfilling didactic requirements and conditions for the development of creative abilities related to engineering profession of students of higher educational institutions.

Keywords

Student, education, upbringing, engineer, creativity, ability, didactic, educational process, interest, skills, qualification, profession, efficiency.

Rivojlangan davlat iqtisodiyoti ko'pchilik holatlarda istiqbolli ilmiy-texnik g'oyalar kelishi va amalga tadbiiq tezkorligiga bog'liq bo'ladi. Buning uchun ilmiy-tadqiqot ijodkorlik ishi natijadorligini keskin oshirish lozim. Ishning muvaffaqiyati ko'pincha mutaxassislar malakasi, ularning murakkab ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va tashkiliy masalalarni ijodiy xal qilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Bunday mutaxassislarni shakllantirish muammosi asosan fundamental, amaliy tadqiqotlar hamda oliy harbiy ta'lim tizimi doiralarida hal qilinadi. Oliy harbiy ta'lim tizimida ilmga qiziquvchi kursantlarni aniqlash va tanlash, ularni tarbiyalash yo'lga qo'yilishi lozim. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning didaktik asoslarini takomillashtirish zaruriyati paydo bo'ladi.

Ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega kursantlarni tarbiyalashni ularni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish, natijalarni ishlab chiqarishga tadbiiq qilish orqali amalga oshirish mumkin.

Kursantni mutaxassislik- ijodiy yo'naltirish ularni uslubiyat asosi va ilmiy ijodkorlik tajribasini o'rgatish orqali bajariladi.

Shu sababli oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarda ilmga yo'naltirilganlik ijodiy qobiliyatni shakllantirish orqali amalga oshirishni o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Turli mualliflar tomonidan e'lon qilingan kasbiy kompetensiya muammolari to'g'risidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi. Mazkur tadqiqotimizda mutaxassisning kasbiy kompetensiyasida ijodkorlik masalasiga alohida urg'u berilgan bo'lib, u mutaxassisda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ijodkorlik haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo ijodkorlikning mohiyatini mukammal tahlil qilib olish zarur. Ijodkorlik mohiyatini o'rganish, aytish joiz bo'lsa, o'ta murakkab masala sanaladi, chunki uning zimmasiga inson va tabiatni o'rganishning muhim metodologik masalalarini yechishdek vazifa qo'yiladi. Ijodkorlikni rivojlantirish manbalari, biologik va ijtimoiy, ob'ektiv va sub'ektiv, individual va jamoa o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni bu jarayonlar o'z ichiga qamrab oladi.

Sh.S.Sharipov ixtirochilikni "tegishli idoralar tomonidan patentlar bilan tasdiqlanadigan yangi texnik yechimni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat turi, ixtirochilik ijodkorligi esa bu jarayonning shaxsdagi zehnilik, topqirlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi ijodkorlik sifatlari bilan bog'liq umumiy tavsifi", deb ta'riflagan".

G.Gegel dunyo ijodiy faoliyat umumiy sxemasini “mutloq g’oya” deb atab, birinchi marta turli faoliyat asosini rivojlanish asosiga qarama –qarshi ekanligini ko’rsatgan edi.

Ijodkorlikning asosiy qirralari B.C.Bibler, J.Brunera, A.V.Brushlinskoy, L.S.Vygotskiy, I.Ya.Galperin, I.P.Gilford, V.V.Davydov, G. Klyaus, Yu.N.Kulyutkin, A.N.Leontev, A.M.Matyushkin, J.Piaje, Ya.A.Ponomarev, K.Popper, S.L.Rubinshteyn kabi mashhur faylasuflarning asarlarida keltirilgan.

O.V.Afanasev va V.V.Zotovlarning asarlarida ijodkorlik murakkab, ko’p qirrali, ijtimoiy-ma’naviy xodisa sifatida ko’rilgan. M.S. Kagan, B.M. Kedrov, V.F.Ovchinnikov va boshqalar asarlarida ijodkorlik, uning tuzilishi, va shaxs rivojlanishida ijodkorlik ta’siri o’rganilgan.

M.G.Yaroshevskiy ijodkorlik – yangilik yaratishdir deb ta’kidlab o’tgan edi. Uni shunday tushunish kerakki, bunda sub’ektning tasavvurlari yangilanadi va hulq atvori, u yaratgan va in’om etayotgan mahsulotlari ham yaxshilanadi”.

O’xshash ta’rif va belgilarni u yoki bu shaklda boshqa ko’plab ijodkorlar faoliyatlarida ham kuzatish mumkin. Masalan, S.L.Rubinshteynning ta’kidlashicha, ijodkorlik qandaydir yangilik yaratuvchi faoliyatdir.

Yangilik olib kirish ijodkor yuksalishiga sabab bo’ladi. Shu bilan birga, fan va madaniyat taraqqiyoti tarixida ham o’z izini qoldiradi .

Ijodkorlik “qayta shakllantirish” – mavjud shakl unsurlari yordamida yangi shakl yaratish demakdir. “Qayta shakllantirish” ijodkorligi o’z ichiga oldindan ma’lum bo’lgan shaklga o’xshagan yangi shaklni kashf etishdir.

Ijodkorlik “bir shakldan ikkinchi shaklga o’tkazish” – bu jarayonda qoidalarning yangi qolipi, chizmasi, ma’lum tuzilmalarning yangi turi yuzaga keladi. Yangi yaratilgan shakllar eski shakllarning yangicha talqini bo’lmaydi.

Ijodkor shaxs qoidalar yaratilishi bilanoq, ularga suyangan holda, yangi qoidalar yaratish ustida ish boshlaydi. Undan so’ng faoliyat shakllarini ochish, oldin hech qachon qo’llanilmagan shakllarni kashf etish uchun bosh qotiradi.

Bo’lajak mutaxassisning kasbiy-pedagogik ijodkorligi rivojlanishi haqida fikr bildirar ekanmiz, bu borada M.G.Yaroshevskiy tomonidan berilgan xulosalar diqqatga sazovorligini aytish joiz. Olimning fikricha ijodkorlik jarayoniga tizimli munosabat uch jihatli tarkib va ularning o’zaro uzviyligida o’rganishni taqozo etadi. Ular narsa va hodisalar, ijtimoiy va shaxsga taalluqlilik tarkiblardan iboratdir: narsa va hodisalar tarkibi - evristika, narsaning yangi obrazini yaratuvchi ruhiy “mato”, so’ngra u ilmiy matnga aylanadi va yangi g’oyalalar, nazariyalar va kashfiyotlar sifatida yuzaga chiqadi. Bu evristikalar: analoglar, metaforalar, qiyoslash, modellardan iborat bo’lib, odatda fikrlash mazmunini tashkil etadi va

vizual shakl ga ega bo'ladi; ijtimoiy tarkib - bunday ijodkorlik kognitiv-dialogik "dastlabki faolligi" sifatida ko'zga tashlanadi.

Shunday qilib, opponentlar, muqobilliklar ham ijodiy jarayonlarning avj olishiga turtki beradi; shaxsga oid tarkib - shaxsiy intilish, ichki maqsadli istak va ijod sub'ekting xususiy sifatlaridan iborat bo'lib, ijodiy jarayonlarni uzluksiz tashkil etishda yuzaga chiqadigan yangi belgilar, o'zgarishlardan iborat.

Pedagogikada ijodkorlik nazariyasining asoslarini ishlab chiqish, faoliyat turlarida ijodkorlik jarayonlarining qonuniyatlarini tadqiq qilishda psixologiya fani beqiyos ahamiyat kasb etadi. Jumladan, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, B.M.Teplov kabi psixolog olimlarning ishlarida ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy fikrlash muammolari chuqur tadqiq qilingan».

Insonning ijodkorlik qobiliyati shaxs sifati hisoblanib, psixolog olimlarning fikriga ko'ra u to'rtta guruhga ajratiladi:

- intellektual sifatlari: dunyoqarash, eruditsiya, fikrlashning ijodiy xususiyatlari (chuqurligi, kengligi, tanqidiyligi hajmliligi, nomantiqiy fikrlay olish);

- mahsullik sifatlari: egallangan bilimlar hamda metodlarni sintezlay olish ko'nikmasi, tadqiqotlarni amalga oshirish metodologiyasini egallanganlik;

- irodaviylik sifatlari: o'z faoliyatini rejalashtirish va sharoitga moslashtirib borish, o'z-o'zini nazorat qila olish, g'oyalarni rivojlantirib, aniq natijaga yetkaza olish;

- hissiy-ijodiy sifatlari: intuitsiya, tasavvur, fantaziya.

Birinchi sifat I.Ya.Lernerning nuqtai nazariga bog'liq. Unga ko'ra, ijod bilan shug'ullanuvchi kishilarning fazilatlari chegarasini o'lchab bo'lmaydi, ular haqida fikr aytish uchun ana shu faoliyat tabiatini anglamay, unga monand xislatlarni bilmay, aniqrog'i, uning ijodiy faoliyat jarayonlarini o'rganmay turib gap yuritish mumkin emas.

Shu munosabat bilan tadqiqotchi ijodiy faoliyatning protsessual chegaralarini ajratib ko'rsatadi:

- mustaqil ravishda uzoq va yaqin, ichki va tashqi bilimlar tizimi va mahoratni yangi vaziyatga ko'chiradi;

- an'anaviy vaziyatlarda yangi muammolarni his etadi;

- ob'ekt an'anaviy funksiyasi o'rniga yangisini tasavvur qiladi;

- masalalarni yechishda muqobil yechimlarni ham hisobga oladi;

- yangi muammolarni hal etishda faoliyatning oldindan ma'lum bo'lgan usullari va yo'llarini qayta ishlaydi;

- prinsipial yangi yo'llar topish niyatida eskirib qolgan yo'llardan voz kechadi.

Inson omilini faollashtiruvchi samarador zahiralardan biri jamiyat hayotining barcha jabhalarida, ishlab chiqarishda, texnikada, fanda, ta'lim va boshqaruvda ijodkorlikni rivojlantirish hisoblanadi.

Shu bois ijodiy muammolarni jamoa bo'lib yechish sharoitlari va tashkil etish shakllari, muammolari kun tartibidagi dolzarb masalalardir. Yuqorida keltirilgan belgilarga ajratish va baholash jadvalini har bir talaba kesimida o'rganib olamiz.

Ushbu vazifani bajarishda fakultet, kafedralar hamkorlikda ishlashi lozim. Olingan statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi va kursantning ijodkorlik doirasi aniqlanib, kerakli yo'nalish bo'yicha ilmiy rahbar belgilanadi.

Ilmiy rahbar kursantga rivojlantirish rejasini tuzishga yordam beradi va uni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qiladi. Kursantning ijodkorlik doirasi aniqlanib rivojlantirish rejasi asosida faoliyati yo'naltiriladi. Birinchi bosqich talabasini ilmiy tadqiqotlarga jalb qilishni ko'rib chiqaylik. Yuqorida keltirilgan belgilar va baholash tizimi orqali kursantning kuchli va zaif tomonlari aniqlab olinadi.

Albatta yuqorida keltirilgan fikrlarni amalga oshirishda kursantning qiziqishini e'tiborga olish, uning ijodkorlik doirasidan chiqib ketmaslik muhim o'rin tutadi. Chunki kursantga uning imkoniyatidan ortiq vazifani berish yoki g'oyalarini hisobga olmaslik unda kreativ fikrlash qobiliyatining "bo'g'ilishi" ga va shablon asosida fikrlaydigan bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.

Kursantning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga ilmiy yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Библер В.С. Нравственность. Культура. Современность / ВС Библер. М.: Мысль.- 1990, С.79
2. Выготского, Л. С., Гальперина, И. Я., Гильфорда, И. П., Давыдова, В. В., Кляуса, Г., Крутецкого, В. А., ... & Пиаже, Ж. ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ СРС СРЕДСТВАМИ ИКТ. - 1990, С.65
3. Каган, М. С. Формирование личности как синергетический процесс. Синергетическая парадигма. Человек и общество в условиях нестабильности. М.: Прогресс-Традиция, - (2003). С.341-357.
4. Кедров, Б. М. О творчестве в науке и технике. М.: Молодая гвардия, - (1987). С.191.

5. Лейтес Н.С. Ранние проявления одаренности. Вопросы психологии, - (1988). С. 98.
6. Леонтьев, А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. Политиздат. - (1977). С.41
7. Лернер, И. Я. Дидактические основы методов обучения. М.: педагогика, - (1981). С.185.
8. Маматкулов, А. Н. Касбий таълимда талабалар ижодкорлигини ривожлантириш. Современное образование (Узбекистан), - (2019). С.(12 (85)).